

**INNOVATIVE DEVELOPMENT OF MOBILE BANKING SERVICES IN
UZBEKISTAN: STATE, CHALLENGES AND PROSPECTS.**

Scientific Supervisor: PhD Normukhamedov Sardor Rifatovich

National University of Uzbekistan, Master's Student

Janabayev Rakhimbek Jalgasbayevich

ANNOTATION

This thesis scientifically analyzes the current state, key indicators, existing problems, and future prospects of mobile banking services in Uzbekistan during 2022–2026. Based on the latest statistical data for 2025–2026, the level of public usage of mobile banking services and the factors limiting their development have been identified. Practical recommendations for eliminating these problems have also been developed.

Keywords: mobile banking, digital banking, fintech, financial inclusion, Click, Payme, Uzum Bank, Open Banking

**O'ZBEKISTONDA MOBIL BANKING XIZMATLARINING INNOVATSION
RIVOJLANISHI: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.**

Ilmoy rahbar: PhD Normuxamedov Sardor Rifatovich

O'zbekiston milliy universiteti Magistrant: Janabayev Raximbek Jalgasbayevich

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi O'zbekistonda mobil banking xizmatlarining 2022–2026-yillardagi rivojlanish holati, asosiy ko'rsatkichlari, mavjud muammolar va istiqbollar ilmiy tahlil qilinadi. 2025–2026-yilgi so'nggi statistik ma'lumotlar asosida aholining mobil banking xizmatlaridan foydalanish darajasi va cheklovchi omillar aniqlangan. Muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mobil banking, raqamli bank, fintech, moliyaviy inklyuziya, Click, Payme, Uzum Bank, Open Banking.

АННОТАЦИЯ

В данной тезисной работе проведён научный анализ состояния развития услуг мобильного банкинга в Узбекистане в 2022–2026 годах, их основных показателей, существующих проблем и перспектив развития. На основе последних статистических данных за 2025–2026 годы определены уровень использования населением услуг мобильного банкинга, а также факторы, ограничивающие их развитие. Разработаны практические рекомендации по устранению существующих проблем.

Ключевые слова: мобильный банкинг, цифровой банк, финтех, финансовая инклюзия, Click, Payme, Uzum Bank, Open Banking

1. KIRISH

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank sektorini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. 2025-yilning I-chorak ma'lumotlariga ko'ra, Click platformasi foydalanuvchilari soni 20 milliondan oshdi — bu O'zbekiston balog'atga yetgan aholisining 90 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi.¹ 2026-yil 1-apreldan Prezidentning 2025-yil 10-dekabrdagi farmoni asosida uy-joy va avtomobil xaridi faqat naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi majburiy qilindi.²

Tadqiqot maqsadi — O'zbekistonda mobil banking xizmatlarining joriy holati va rivojlanish dinamikasini 2026-yilgi so'nggi ma'lumotlar asosida baholab, istiqbolli yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

2. ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda statistik tahlil (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari, 2022–2026), qiyosiy tahlil (Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya) va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Gomber va boshqalar (2017), Demirguc-

¹ Spot.uz, 2025

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi Farmoni (naqdsiz hisob-kitoblar

Kunt va boshqalar (2018) kabi olimlar mobil banking moliyaviy inklyuziyaning eng samarali vositasi ekanligini isbotlagan. Axborot bazasi: cbu.uz, Jahon banki, IMF, Markaziy bank Telegram kanali (2026-yil I-chorak), spot.uz, gazeta.uz.

3. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

3.1. Rivojlanish dinamikasi (2022–2026)

2026-yil I-chorakda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Kliring tizimi orqali 39,9 million ta to'lov amalga oshirildi — o'tgan yilga nisbatan 20,2 foizga ko'p; to'lovlar summasi 25,5 trln so'mdan 32,8 trln so'mga yetib, 28,7 foizga oshdi. Raqamli to'lovlar ulushi 2019-yildagi 15 foizdan 2026-yil boshiga kelib 75 foizdan oshdi. 2025-yilda naqd pullarning pul massasidagi (M2) ulushi 18,1 foizgacha pasaydi ³.

3.1-jadval. Asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi (2022–2026)⁴

Ko'rsatkich	2022	2023	2024	2025	2026 (I-kv)
Faol foydalanuvchilar (mln)	7,2	10,8	15,4	20+	21+
Raqamli to'lovlar ulushi (%)	38%	51%	62%	72%	75%+
Mobil ilovali banklar soni	18	25	30+	35+	35+
Kliring tizimi to'lovlar (mln)	—	—	—	33,2	39,9
Kliring tizimi hajmi (trln so'm)	—	—	—	25,5	32,8

3.2. Yetakchi platformalar: Click, Payme va Uzum Bank

Click 2025-yil I-chorakda daromadini 29 foizga oshirib, Humo tizimidagi barcha tranzaksiyalarning 33 foizini qamrab oldi. Payme 2025-yil 30-mayda PCI DSS sertifikatini yangiladi va 2025-yil 2-iyuldan majburiy identifikatsiyani joriy qildi — buning sababi kiberjinoyatlarning keskin o'sishi: 5 yil ichida 68 barobar o'sib, 2024-

³ Anhor.uz, 2026

⁴ O'zbekiston Markaziy banki (cbu.uz), 2026; Spot.uz; Anhor.uz; muallif hisob-kitoblari.

yilda 603 mlrd so'mlik zarar yetkazildi. Uzum Bank 2026-yil I-chorakda Kliring tizimining eng faol ishtirokchilari qatoriga kirdi. 2026-yilda kartadan kartaga pul o'tkazish 7 ta to'lov xizmati va 28 ta bank orqali amalga oshirilmoqda ⁵.

3.3. Asosiy muammolar

- Kiberjinoyatlar — 5 yil ichida 68 barovarga o'sish; 2024-yilda 603 mlrd so'm o'g'irlangan;
- Raqamli savodxonlikning pastligi — aholining 30–35 foizi xizmatdan to'liq foydalana olmaydi;
- Internet infratuzilmasining notekisligi — qishloq hududlarda barqaror internet yetarli emas;
- Open Banking qonunchiligi — maxsus hujjat hali shakllanish bosqichida (35/14-son Nizom — muhim qadam);
- Komissiya notekisligi — platformalar o'rtasida 0,5% dan 1,99% gacha farq.

3.4. Xorijiy tajriba⁶

Mamlakat	Raqamli to'lovlar	Yetakchi platforma	Model
O'zbekiston	75%+ (2026)	Click, Payme, Uzum	Milliy platforma
Xitoy	87% (2023)	Alipay, WeChat Pay	Super-ilova
Janubiy Koreya	90%+ (2023)	KakaoBank, Toss	Neobank
Turkiya	82% (2023)	İşbank, Troya	Milliy karta

Manba: O'zbekiston MB (2026); PBoC (2023); KakaoBank AR (2023); İşbank AR (2023).

⁵ Spot.uz, 2026

⁶ KakaoBank. 2023 Annual Report. Seoul, 2024. People's Bank of China. China Financial Stability Report 2023. Beijing, 2023. Türkiye İş Bankası. 2023 Faaliyet Raporu. Istanbul, 2024.

Global miqyosda 2026-yilga kelib naqd pulsiz tranzaksiyalar 2 121,6 mlrdga yetishi kutilmoqda (ResearchGate, 2026). O'zbekiston ushbu tendensiyaga faol qo'shilmogda.

4. XULOSALAR

1. Raqamli to'lovlar ulushi 2022-yildagi 38 foizdan 2026-yil boshida 75 foizdan oshdi; Kliring tizimi orqali to'lovlar I-chorakda 20,2 foizga o'sdi.
2. Click 20 mln+ foydalanuvchi bilan balog'atga yetgan aholining 90 foizini qamrab oldi.
3. Kiberjinoyatlar (68 barobar o'sish), raqamli savodxonlik va qonunchilik bo'shliqlari kompleks yechimni talab qiladi.
4. 2026-yil 1-aprildan yirik bitimlarning naqd pulsiz shaklga o'tishi raqamli to'lovlar ulushini yanada oshiradi.

5. ILMIY-AMALIY TAVSIYALAR

1. Kiberjinoyatlarga qarshi: AI asosidagi real vaqt fraud-monitoring tizimlarini standart sifatida joriy etish; majburiy biometrik identifikatsiyani kengaytirish.
2. Open Banking: 2026-yil davomida fintech sohasini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjati qabul qilish.
3. Raqamli savodxonlik: qishloq hududlarda MFY va bank filiallar orqali bepul o'quv dasturlari.
4. Moliyaviy inklyuziya: hisob raqami yo'q aholiga mo'ljallangan soddalashtirilgan e-wallet xizmatlarini rivojlantirish.
5. Platforma raqobati: Markaziy bank tomonidan komissiya stavkalariga tavsiya chegaralarini belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisoboti. 2024.

2. Markaziy bank. 2026-yil I-chorak Kliring tizimi statistikasi. // t.me/centralbankuzbekistan
3. Markaziy bank boshqaruvining 35/14-son Qarori. Kiberxavfsizlik Nizomi. 2026-yil 21-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi Farmoni (naqdsiz hisob-kitoblar).
5. Click. 2025-yil I-chorak natijalari. // Spot.uz, 01.05.2025.
6. Payme Blog. Faqat tekshirilgan foydalanuvchilar. // blog.payme.uz,
7. Spot.uz. Kartadan kartaga pul o'tkazmalari komissiyalari. 27.02.2026.
8. Anhor.uz. Naqd pul massasi M2 tahlili, 2025. 14.02.2026.
9. KakaoBank. 2023 Annual Report. Seoul, 2024.
10. Türkiye İş Bankası. 2023 Faaliyet Raporu. Istanbul, 2024.